Davlat kafolatlari kichik va o'rta biznes subyektlarining huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularning tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash hamda moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiluvchi muhim institutsional mexanizm hisoblanadi. Davlat kafolatlari davlat tomonidan qonunlar, normativ-huquqiy hujjatlar hamda maxsus jamg'armalar orqali taqdim etiladigan moliyaviy va huquqiy himoya shakli sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu mexanizm tadbirkorlik faoliyatini yuritishda barqarorlikni ta'minlashga, shuningdek, kreditlash jarayonlarida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan tavakkalchiliklarni kamaytirishga xizmat qiladi.

Davlat tadbirkorlik erkinligini kafolatlab, tadbirkorlarning qonuniy faoliyat yuritish huquqi, mulkchilik huquqi va boshqa iqtisodiy manfaatlarini himoya qiladi. Shuningdek, davlat tomonidan jalb etilgan qarzar bo'yicha davlat kafolatining berilishi kredit beruvchi tomon uchun qarz majburiyatlarining bajarilishi bo'yicha qo'shimcha ishonch omilini yaratadi. Bu esa kredit bozorida barqaror moliyaviy muhitni shakllantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Davlat ko'magining muhim shakllaridan biri davlat budjeti yoki maxsus jamg'armalar hisobidan ko'rsatiladigan moliyaviy yordam hisoblanadi. Jumladan, davlat qarzig'a xizmat ko'rsatish bo'yicha kafolat jamg'armasi, subsidiyalar hamda boshqa moliyaviy qo'llab-quvvatlash vositalari tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Davlat xarajatlarini daromadlar doirasida muvozanatli olib borish hamda ichki qarz yukining barqarorligini ta'minlash iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashning muhim omili sifatida qaraladi.

O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 29-apreldagi "Davlat qarzi to'g'risida"gi O'RQ-836-son Qonuni davlat qarz majburiyatlarini bajarishda kafolat mexanizmlarini belgilab beradi. Mazkur qonunning 20-moddasiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi nomidan jalb etilgan qarz mablag'lari bo'yicha hisoblangan foiz xarajatlari O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining G'aznachilik xizmati qo'mitasi huzuridagi Davlat qarzig'a xizmat ko'rsatish bo'yicha kafolat jamg'armasi yoki davlat budjeti mablag'lari hisobidan qoplanishi mumkinligi belgilangan [1].

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining 2012-yil 2-maydagi "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi O'RQ-328-son Qonunining 18-moddasiga muvofiq, davlat iqtisodiy faoliyat erkinligini, tadbirkorlikni rivojlantirishni hamda barcha mulk shakllarining teng huquqliligi va huquqiy jihatdan himoya qilinishini kafolatlaydi [2].

Kichik va o'rta biznes subyektlarini qo'llab-quvvatlashda grant mexanizmlari ham muhim o'rin tutadi. Grant — bu tadbirkorlik faoliyatini boshlash yoki rivojlantirish uchun ajratiladigan, qaytarib berish majburiyati bo'lmagan moliyaviy yordam turi bo'lib, u davlat organlari, xalqaro tashkilotlar yoki xususiy jamg'armalar tomonidan taqdim etiladi.

O'zbekiston Respublikasida kichik va o'rta biznes subyektlarini qo'llab-quvvatlash maqsadida turli grant dasturlari amalga oshirilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi tomonidan yosh tadbirkorlar (18–30 yosh) uchun startap va biznes loyihalarga grantlar ajratilmoqda. Shuningdek, Oila va xotin-qizlar qo'mitasi tomonidan ayol tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan grant dasturlari joriy etilgan. Bundan tashqari, Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi tomonidan kichik biznes va innovatsion loyihalarni moliyaviy qo'llab-quvvatlashga qaratilgan grant dasturlari amalga oshirilmoqda.

Hozirgi kunda kichik va o'rta biznes subyektlari uchun ajratilayotgan grantlar hajmi loyihaning yo'nalishi va innovatsion darajasiga qarab farqlanadi. Xususan, oddiy startap loyihalar uchun 10 mln so'mdan 100 mln so'mgacha, innovatsion loyihalar uchun 100 mln so'mdan 1 mlrd so'mgacha, xalqaro grant loyihalari doirasida esa 5 000 AQSh dollaridan 100 000 AQSh dollarigacha miqdorda mablag'lar ajratilishi mumkin. Mazkur grantlar asosan IT va startap loyihalar, qishloq xo'jaligi, hunarmandchilik, ekologiya va "yashil" iqtisodiyot, shuningdek ayollar va yoshlar tadbirkorligini rivojlantirishga yo'naltirilgan.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida kichik va o'rta biznes hamda xususiy tadbirkorlik subyektlarining kredit resurslari, xomashyo bazasi hamda davlat tomonidan taqdim etilayotgan imtiyozli mexanizmlardan samarali foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish ularning innovatsion salohiyatini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish jarayonida innovatsion faoliyat samaradorligini ta'minlovchi mexanizmlar majmuasi shakllantirilmoqda, ulardan biri venchur tadbirkorlik hisoblanadi.

Venchur tadbirkorlik va venchur investitsiyalar yuqori tavakkalchilik darajasiga ega bo'lishiga qaramay, yuqori daromad olish imkoniyatini taqdim etuvchi muhim moliyaviy mexanizm hisoblanadi. "Venchur" atamasi "tavakkal" yoki "xatarli investitsiya" ma'nosini anglatadi. Innovatsion mahsulotlar yoki xizmatlarni ishlab chiqarish



jarayonida moliyaviy, bozor, texnologik hamda narx bilan bog'liq tavakkalchiliklar mavjud bo'lishi tabiiydir. Shu sababli bunday loyihalarni moliyalashtirish uchun maxsus venchur kapital mexanizmlari qo'llaniladi.

Venchur kapital — bu yuqori tavakkalchilik darajasiga ega bo'lgan, ammo tez rivojlanish va yuqori daromad olish salohiyatiga ega startap loyihalarga yo'naltiriladigan investitsiya turi bo'lib, odatda investor tomonidan startap kapitaliga ulush (aksiya) evaziga kiritiladi.


Kichik va o'rta biznes subyektlarining innovatsion faolligini qo'llab-quvvatlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 14-fevraldagi "Yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish va bandligini ta'minlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-62-son qarori¹⁰ asosida "Innovatsion yoshlar" loyihasi doirasida venchur jamg'armalari orqali yosh tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash mexanizmi joriy etilgan.

Mazkur loyiha doirasida quyidagi yo'nalishlarda ko'mak ko'rsatilmoqda:

- yosh tadbirkorlar uchun venchur moliyalashtirish orqali innovatsion loyihalarni amalga oshirishga zarur mablag'larni ajratish;
- IT, raqamli texnologiyalar, "yashil" iqtisodiyot va boshqa innovatsion yo'nalishlardagi loyihalarni qo'llab-quvvatlash;
- loyihalarni rivojlantirish, biznes yuritish va innovatsion faoliyatni tashkil etish bo'yicha maslahat hamda amaliy ko'nikmalar berish.

Mazkur tashabbus yosh tadbirkorlarning innovatsion g'oyalarini amalga oshirishga ko'maklashish, ularning tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish hamda bandligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 24-dekabrda "Soliq va budget siyosatining 2025-yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-1014-son Qonuni¹¹ga muvofiq, IT Park rezidentlari uchun barcha turdagi soliqlar bo'yicha imtiyozlarning amal qilish muddati 2040-yilgacha uzaytirildi. Ushbu preferensiyalar raqamli iqtisodiyot va innovatsion startaplarni qo'llab-quvvatlash, IT sohasiga investitsiyalarni jalb etish hamda texnologik tadbirkorlikni rivojlantirishga xizmat qilmoqda (1-rasm).



1-rasm. Kichik va o'rta biznes subyektlarning innovatsion faolligini ta'minlashga yo'naltirilgan soliq va bojxona imtiyozlari kengaytirish usuli¹²

Rasmda kichik va o'rta biznes subyektlarining innovatsion faolligini ta'minlashga yo'naltirilgan soliq va bojxona imtiyozlarini kengaytirish mexanizmi keltirilgan.

Innovatsiyaga yo'naltirilgan xarajatlar uchun soliq chegirmalari kichik va o'rta biznes subyektlariga soliq bazasini kamaytirish orqali qo'llaniladi. Ya'ni, tadbirkor innovatsion faoliyatga yo'naltirgan ayrim xarajatlarni soliq hisobida tan oladi va natijada to'lanadigan soliq summasi qisqaradi. Ushbu tartib O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi hamda tegishli me'yoriy-huquqiy hujjatlar asosida amalga oshiriladi. Soliq chegirmalari kichik va o'rta biznes subyektlarining soliqla tortiladigan foydasidan chegirib tashlanadi. Innovatsion xarajatlarni aniqlashda ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlari, yangi texnologiya va uskunalarni xarid qilish, dasturiy

¹⁰ <https://lex.uz/docs/-7387025>

¹¹ <https://lex.uz/ru/docs/-7279923>

¹² Muallif ishlanmasi



mahsulotlar va patentlar, shuningdek innovatsion faoliyat bilan bog'liq mutaxassislar mehnatiga to'lanadigan xarajatlar e'tiborga olinadi.

R&D (Research and Development — izlanish va rivojlanish) soliq krediti innovatsiyalarni rag'batlantirish maqsadida tadbirkorlarning ilmiy-tadqiqot faoliyatiga yo'naltirgan xarajatlari uchun taqdim etiladigan soliq imtiyozidir. O'zbekistonda R&D soliq krediti konsepsiyasi investorlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida 2019–2020-yillardagi investitsiya va soliq qonunchiligidagi islohotlar jarayonida shakllana boshlagan. Shu bois mazkur mexanizmni aniq bir sana bilan emas, balki investitsiyaviy muhitni yaxshilash va innovatsiyalarni rag'batlantirishga qaratilgan qonunchilik islohotlari natijasi sifatida baholash maqsadga muvofiqdir.

O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 25-dekabrda "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi O'RQ–598-son Qonuni¹³ asosida investorlarni qo'llab-quvvatlash, investitsiya muhitini yaxshilash, shuningdek, ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatga yo'naltirilgan xarajatlarni rag'batlantirishga xizmat qiluvchi huquqiy asoslar shakllantirildi. Mazkur qonun va u bilan bog'liq 2019–2020-yillardagi qonunchilik o'zgarishlari R&D bilan bog'liq soliq imtiyozlarining rivojlanishi uchun muhim zamin yaratdi.

R&D soliq kreditining asosiy maqsadi kichik va o'rta biznes subyektlarini innovatsiyalar va ilmiy-tadqiqot ishlariga faol investitsiya kiritishga rag'batlantirishdan iborat. Bunda mol-mulk va yer soliqlari bo'yicha imtiyozlar, investitsiya soliq kreditlari, yangi tashkil etilgan innovatsion korxonalar uchun soliq ta'tillari hamda ayrim soliqlar, jumladan ijtimoiy soliq bo'yicha pasaytirilgan stavkalarni qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrda "O'zbekiston — 2030" strategiyasini 2023-yilda sifatli va o'z vaqtida amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ–300-son¹⁴ qaroriga asosan 2024-yil 1-yanvardan boshlab qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtiruvchilarga hosilni sug'urtalashda sug'urta mukofotining 50 foizi miqdorida subsidiya berish tartibi joriy etildi. Shuningdek, "Izlanish va rivojlanish" (R&D) markazlari uchun ular tashkil etilgan kundan boshlab 3 yil muddatga mol-mulk va yer soliqlari bo'yicha hisoblangan summaning 1 foizi miqdorida to'lovni amalga oshirish, ularning xodimlari uchun esa ijtimoiy soliq stavkasini 1 foiz miqdorida belgilash tartibi joriy qilindi. Bundan tashqari, davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo'lgan tashkilotlar tomonidan har yili amalga oshiriladigan investitsiya loyihalari qiymatining kamida 5 foizini obligatsiyalar chiqarish orqali moliyalashtirish mexanizmi ham belgilandi.

Institutsional infratuzilma innovatsiya, tadbirkorlik va texnologik rivojlanishni qo'llab-quvvatlovchi tashkilotlar, mexanizmlar va qoidalar majmuidir. U raqamli iqtisodiyot sharoitida yangi g'oyalarni tijoratlashtirish, startaplarni rivojlantirish, ilm-fan va ishlab chiqarish o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni mustahkamlash vazifalarini bajaradi. Shu bilan birga, institutsional infratuzilma kichik va o'rta biznes subyektlarining tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yish, rivojlantirish va kengaytirishga xizmat qiluvchi maxsus institutlar hamda qo'llab-quvvatlash mexanizmlari tizimini ham ifodalaydi.

Mazkur tizim tadbirkorlarga moliyaviy va nomoliyaviy yordam, bilim va maslahat xizmatlari, shuningdek bozorlar va investitsiya manbalariga chiqish imkoniyatlarini taqdim etadi. Ushbu infratuzilmada texnoparklar, biznes-inkubatorlar va akseleratorlar asosiy institutlar sifatida muhim o'rin egallaydi.

Texnoparklar kichik va o'rta biznes subyektlari uchun yuqori texnologiyali mahsulot va xizmatlar yaratishga ixtisoslashgan innovatsion infratuzilma hisoblanadi. Texnoparklar kichik va o'rta biznes subyektlariga zamonaviy ishlab chiqarish va laboratoriya binolaridan foydalanish imkoniyati, soliq, bo'xona hamda ijara imtiyozlari, ilmiy muassasalar bilan hamkorlik qilish, shuningdek startap va innovatsion korxonalar uchun maxsus rejimlar orqali faoliyat yuritish imkoniyatlarini taqdim etadi. Mazkur infratuzilma tadbirkorlarga innovatsion bizneslarni shakllantirishda ko'maklashadi, raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlaydi hamda eksportga yo'naltirilgan tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishiga xizmat qiladi.

Biznes-inkubatorlar tadbirkorlik faoliyatini boshlayotgan shaxslar uchun mo'ljallangan muhim institutlardan biridir. Biznes-inkubatorlar tomonidan taqdim etiladigan asosiy xizmatlar quyidagilardan iborat:

- ofis va umumiy infratuzilma bilan ta'minlash;
- buxgalteriya, soliq va yuridik maslahat xizmatlari;
- biznes-reja ishlab chiqishda ko'maklashish;
- o'quv kurslari va mentorlik xizmatlarini tashkil etish.

Biznes-inkubatorlarning asosiy ahamiyati shundaki, ular yangi tashkil etilayotgan bizneslarning dastlabki tavakkalchilik darajasini kamaytiradi, yangi tadbirkorlarning bozorga kirib kelishini qo'llab-quvvatlaydi hamda kichik va o'rta biznes subyektlarining barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

Akseleratorlar esa o'z biznesiga ega bo'lgan, biroq uni tez sur'atlarda kengaytirishni maqsad qilgan tadbirkorlar uchun mo'ljallangan rivojlantiruvchi dasturlar hisoblanadi. Akseleratorlarning asosiy imkoniyatlari quyidagilardan iborat:

- qisqa muddatli intensiv rivojlanish dasturlari;
- yuqori malakali mentorlar bilan ishlash imkoniyati;

¹³ <https://lex.uz/ru/docs/-4664142>

¹⁴ <https://lex.uz/uz/docs/-6600390>



- venchur investorlar bilan uchrashuvlar tashkil etish;
- startup loyihalarini masshtablash jarayonida ko'maklashish.

Umuman olganda, kichik va o'rta biznes subyektlarining innovatsion faolligini ta'minlashga qaratilgan institutsional infratuzilma — texnoparklar, biznes-inkubatorlar va akseleratorlar — tadbirkorlar uchun biznesni boshlash bosqichidan boshlab uni kengaytirish va masshtablashgacha bo'lgan jarayonlarni qamrab oladi. Ushbu infratuzilma innovatsion iqtisodiyotning rivojlanishiga xizmat qilib, tadbirkorlik subyektlarining raqobatbardoshligini oshiradi.

Innovatsion loyihalarni sug'urtalash — bu tadbirkor tomonidan amalga oshirilayotgan yangi texnologiya, mahsulot yoki xizmat bilan bog'liq moliyaviy hamda tashkiliy tavakkalchiliklarni sug'urta kompaniyalari orqali qisman yoki to'liq qoplash mexanizmini anglatadi. Ushbu mexanizmning asosiy maqsadi kichik va o'rta biznes subyektlarining moliyaviy yo'qotishlarini kamaytirish, innovatsion faoliyatni rag'batlantirish hamda tadbirkorlar uchun qulay investitsiya muhitini shakllantirishdan iborat.

Davlat-xususiy sheriklik (DXSh) davlat organlari va xususiy sektor o'rtasida uzoq muddatli shartnoma asosida amalga oshiriladigan hamkorlik shakli bo'lib, bunda resurslar, tavakkalchiliklar va daromadlar o'zaro taqsimlanadi. Davlat-xususiy sheriklikning asosiy maqsadi ijtimoiy va iqtisodiy ahamiyatga ega loyihalarni samarali amalga oshirish hamda xususiy kapital va boshqaruv tajribasini jalb etishdan iborat.

Davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari kichik va o'rta biznes subyektlari uchun quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

- yirik va barqaror loyihalarda ishtirok etish;
- davlat kafolatlari orqali tavakkalchilik darajasini kamaytirish;
- uzoq muddatli daromad manbalarini shakllantirish;
- yangi bozor segmentlariga kirish imkoniyatini kengaytirish.

Shuningdek, DXSh mexanizmlari tadbirkorlar uchun davlat kafolatlari va subsidiyalar, soliq va bojxona imtiyozlari, minimal daromad kafolati hamda tavakkalchiliklarni taqsimlash imkoniyatlarini yaratadi. Natijada kichik va o'rta biznes subyektlari uchun moliyaviy barqarorlikni ta'minlash, investitsiya jozibadorligini oshirish, davlat buyurtmalariga kirish imkoniyatlarini kengaytirish hamda infratuzilma va ijtimoiy sohalarda biznes yuritish uchun qulay sharoitlar yaratiladi.

Sinov (regulatory sandbox) rejimi kichik va o'rta biznes subyektlariga yangi mahsulot, xizmat yoki biznes modelini amaliy sharoitlarda, biroq yengillashtirilgan huquqiy va ma'muriy tartib asosida sinab ko'rish imkoniyatini beruvchi maxsus mexanizmdir. Ushbu rejimning asosiy maqsadi innovatsiyalarni tez joriy etish, huquqiy cheklovlar bilan bog'liq tavakkalchiliklarni kamaytirish hamda samarali yechimlarni amaldagi qonunchilikka bosqichma-bosqich tatbiq etishdan iborat.

Sinov rejimi tadbirkorlar uchun quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

- yangi g'oyalarni qonunchilik talablarini buzmasdan sinovdan o'tkazish;
- bozor reaksiyasini aniqlash;
- xarajatlar va tavakkalchiliklarni kamaytirish;
- investorlar ishonchini oshirish.

Shu bilan birga, sinov rejimlari tadbirkorlar uchun innovatsiyalarni xavfsiz sinovdan o'tkazish maydoni, yangi biznes modellarini joriy etish mexanizmi hamda raqobatbardosh tadbirkorlikni rivojlantirish vositasi sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Kichik va o'rta biznes korxonalarining innovatsion faolligini oshirishning moliyaviy asoslarini takomillashtirish maqsadida innovatsion ishlanmalarni tijoratlashtirish hamda yuqori texnologiyali startup loyihalarini davlat ilmiy dasturlari doirasida grant mablag'lari orqali qo'llab-quvvatlash bo'yicha taklif ishlab chiqildi. Mazkur taklif O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 14-sentabrdagi "Kichik biznesni rivojlantirishni moliyaviy va institutsional qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-306-sonli qarori¹⁵ning 3-ilovasi 5-bandida inobatga olingan.

"Kichik biznesni uzluksiz qo'llab-quvvatlash" kompleks dasturi doirasida kichik va o'rta biznes korxonalarining innovatsion faolligini moliyaviy qo'llab-quvvatlash instrumenti sifatida grant mablag'larini ajratish quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

- xalqaro reyting agentliklari baholash mezonlari asosida milliy iqtisodiyotning innovatsion rivojlanish darajasini aniqlash;
- kichik va o'rta biznes korxonalarining innovatsion faolligini monitoring qilish hamda uni oshirishning moliyaviy mexanizmlarini takomillashtirish imkoniyatlarini baholash;
- kichik va o'rta biznes korxonalari ishtirokidagi innovatsion biznes tuzilmalarini qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirishning tabaqalashtirilgan tizimini ishlab chiqish orqali iqtisodiy, texnologik, tashkiliy va marketing innovatsiyalarini amaliyotga joriy etish darajasini oshirish.

15 <https://lex.uz/uz/docs/-6609110>



Mazkur takliflarning amaliyotga joriy etilishi natijasida kichik va o'rta biznes korxonalarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha "uzluksiz xizmatlar zanjiri"ni shakllantirish imkoniyati yaratiladi. Shuningdek, 2023–2026-yillarda ushbu maqsadlar uchun davlat mablag'lari hisobidan 6 trillion so'm hamda xalqaro moliya institutlari tomonidan 1,2 milliard AQSh dollari miqdoridagi mablag'larni yo'naltirish ko'zda tutilgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqorida keltirilgan tahliliy ma'lumotlar asosida xulosa qilish mumkinki, raqamli iqtisodiyot sharoitida kichik va o'rta biznes subyektlarining innovatsion faolligini barqaror oshirish davlatning huquqiy kafolatlari, moliyaviy instrumentlari hamda institutsional infratuzilmasi o'zaro uyg'unlashgan yagona tizim sifatida shakllantirilgan taqdirdagina yuqori natijadorlikka erishish mumkin. Bunda qo'llab-quvvatlashning alohida vositalari — davlat kafolatlari, grantlar, soliq rag'batlari, venchur moliyalashtirish, davlat-xususiy sheriklik (DXSh) hamda "sandboks" rejimlari — bir-birini to'ldiruvchi mexanizmlar sifatida risklarni kamaytirish, moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatlarini kengaytirish, innovatsion g'oyalarni tijoratlashtirish hamda startap loyihalarni masshtablash jarayonlarini jadallashtirishga xizmat qiladi. Mazkur yondashuv normativ-huquqiy barqarorlik, fiskal intizom va institutsional muvofiqlik bilan uyg'unlashganda mikro darajada tadbirkorlik subyektlarining raqobatbardoshligi va investitsiyaviy jozibadorligini oshiradi, makro darajada esa bandlik, daromadlar hamda budjet tushumlarining barqaror kengayishiga zamin yaratib, innovatsion iqtisodiy o'sishning mustahkam asoslarini shakllantiradi.

– Raqamli iqtisodiyot sharoitida kichik va o'rta biznes subyektlarini qo'llab-quvvatlashning institutsional barqarorligi, avvalo, tadbirkorlik erkinligi va mulk huquqining kafolatlanganligi hamda davlatning qarz majburiyatlari bo'yicha javobgarligi aniq belgilangan huquqiy maydon bilan mustahkamlanadi. Xususan, davlat kafolatlari tizimi (kafolat jamg'armasi mexanizmlari bilan birga) kredit bozorida ishonch muhitini kuchaytirib, moliyaviy resurslarga kirishni kengaytirish orqali innovatsion faoliyatni rag'batlantirishning muhim huquqiy-institutsional asosini yaratadi.

– Kichik va o'rta biznesning innovatsion faolligini oshirish yagona instrument bilan emas, balki grantlar, venchur moliyalashtirish, R&D soliq kreditlari, soliq va bojxona preferensiyalari, davlat-xususiy sheriklik hamda "sandboks" rejimlarining o'zaro uyg'unlashgan kompleks mexanizmi orqali samarali ta'minlanadi. Ushbu mexanizmlarning sinergiyasi innovatsion loyihalarning dastlabki bosqichidagi moliyaviy bo'shliqlarni bartaraf etish, yuqori tavakkalchilikni kamaytirish hamda tijoratlashtirish jarayonlarini tezlashtirish orqali startaplarning bozorga chiqish imkoniyatlarini kengaytiradi.

– Texnoparklar, biznes-inkubatorlar, akseleratorlar, mentorlik tizimlari va investorlar bilan hamkorlik mexanizmlari kichik va o'rta biznes subyektlari uchun "startapdan masshtablashgacha" bo'lgan uzluksiz xizmatlar zanjirini shakllantiradi. Mazkur infratuzilma moliyaviy qo'llab-quvvatlash vositalarini nomoliyaviy xizmatlar — konsalting, huquqiy va soliq maslahatlari, biznes kompetensiyalarini rivojlantirish hamda tarmoq aloqalarini kengaytirish bilan birlashtirib, innovatsion salohiyatni real iqtisodiy natijalarga aylantirish imkoniyatlarini kengaytiradi.

– Strategik muvofiqlik va fiskal barqarorlikni ta'minlash kichik va o'rta biznesni innovatsion rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. Davlat kafolatlari, grantlar va fiskal rag'batlar milliy strategik hujjatlar bilan uyg'un holda qo'llanilganda ikki yo'nalishda ijobiy natija ta'minlanadi: mikro darajada — tadbirkorlik subyektlarining investitsiyaviy jozibadorligi va raqobatbardoshligi ortadi; makro darajada esa iqtisodiy o'sish, bandlik va daromadlar bazasining kengayishi orqali budjet tushumlarining barqarorligi mustahkamlanadi. Shu bois qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini fiskal intizom va natijadorlik mezonlari (targeting, monitoring va KPI tizimi) asosida amalga oshirish innovatsion ekotizimning uzoq muddatli barqaror rivojlanishini ta'minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 29-apreldagi "Davlat qarzi to'g'risida"gi O'RQ–836-son Qonuni. – URL: <https://lex.uz/uz/docs/-6446817>
2. O'zbekiston Respublikasining 2012-yil 2-maydagi "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi O'RQ–328-son Qonuni. – URL: <https://lex.uz/ru/docs/-2006789>
3. Stiglitz J. E., Weiss A. Credit Rationing in Markets with Imperfect Information // American Economic Review. – 1981. – Vol. 71, No. 3. – P. 393–410. – URL: <https://ideas.repec.org/a/aea/aecrev/v71y1981i3p393-410.html>
4. Lerner J. The Government as Venture Capitalist: The Long-Run Impact of the SBIR Program // The Journal of Business. – 1999. – Vol. 72, No. 3. – P. 285–318. – URL: <https://econpapers.repec.org/RePEc:ucp:jnlbus:v:72:y:1999:i:3:p:285-318>
5. Mazzucato M. The Entrepreneurial State: Debunking Public vs. Private Sector Myths. – London: Demos, 2011 (2013 edition). – URL: https://demos.co.uk/wp-content/uploads/files/Entrepreneurial_State_-_web.pdf
6. Sattorova S. B. Kichik biznes faoliyatini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning nazariy asoslari // CyberLeninka. – 2022.
7. Mamadjanova T. A., Xodjiqo'lov E. B. Kichik biznesning davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishining nazariy yondashuvlari // Science and Innovation. – 2023. – Elektron resurs. – URL: <https://in-academy.uz/index.php/si/article/download/19649/13353/17971> (murojaat qilingan sana: 08.03.2026).



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 3

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
